XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 18 - fevral VI-41-34-4-0-K/22 Qashqadaryo viloyati hokimligi

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi VI-38-1-4-0-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 24-yanvardagi (06/04-02-02-32/203-son) xatiga asosan Qasqadaryo viloyati Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 4-fevraldagi (01-35/10-07-32/340-son) xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi VI-38-1-4-0-K/22-sonli qarorining 1- va 2-ilovalariga ushbu qarorning 1- va 2-ilovalariga muvofiq quyidagicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (A.Sodiqov) ushbu qarorni viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Ravshanov) va viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari N.Erkayevlar zimmasiga yuklansin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya Raisi **Ravshanov O. P.**

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 18 февралдаги
VI-41-34-4-0-K/22-сон қарорига
1-илова

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2022-yilda yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i stavkalari miqdori

T/R	Hududlar nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)
1.	Qarshi shahar	1,00	29 000 000
2.	Shahrisabz shahar	1,00	29 000 000
3.	G‘uzor tumani	0,80	23 200 000
4.	Dehqonobod tumani	0,60	17 400 000
5.	Qamashi tumani	0,65	18 850 000
6.	Qarshi tumani	0,80	23 200 000
7.	Koson tumani	0,75	21 750 000
8.	Kitob tumani	0,75	21 750 000
9.	Muborak tumani	0,80	23 200 000
10.	Nishon tumani	0,75	21 750 000
11.	Kasbi tumani	0,70	20 300 000
12.	Chiroqchi tumani	0,70	20 300 000
13.	Shahrisabz tumani	0,75	21 750 000
14.	Yakkabog‘ tumani	0,75	21 750 000
15.	Mirishkor tumani	0,60	17 400 000

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 18 февралдаги
VI-41-34-4-0-K/22-сон қарорига
2-илова

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2022 yilda jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i

(dehqon xo‘jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlardan tashqari) stavkalar miqdori

T/R	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1.	Qarshi shahar	1,00	260
2.	Shahrisabz shahar	1,00	260
3.	G‘uzor tumani	0,70	182
4.	Dehqonobod tumani	0,60	156
5.	Qamashi tumani	0,65	169
6.	Qarshi tumani	0,75	195
7.	Koson tumani	0,75	195
8.	Kitob tumani	0,75	195
9.	Muborak tumani	0,70	182
10.	Nishon tumani	0,70	182
11.	Kasbi tumani	0,60	156
12.	Chiroqchi tumani	0,70	182
13.	Shahrisabz tumani	0,75	195
14.	Yakkabog‘ tumani	0,75	195
15.	Mirishkor tumani	0,60	156